

# PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK  
JURNAL

**4/2025**

**Bosh muharrir:**

Karimova E'zozxon Gapirjonovna

Maxmudov Abduxalim Xamidovich  
(bosh muharrir o'rinbosari)

**Tahrir hay'ati:**

Djurayev Risbay  
Ibraimov Xolboy  
Abdullaeva Barno  
Abdullayeva Shaxzoda  
Djurayev Dusmurod  
Ibragimova Gulnora  
Kamilova Nodira  
Quronov Muhammad  
Madjidova Dildora  
Medetova Raushan  
Muslimov Narzulla  
Nurmatov Abdumannop  
Safarova Roxat  
Tojiboyeva Xilolaxon  
Xaydarov Mamat  
Xakimova Muxabbat  
Xodjayev Begzod

**Muassis** – Nizomiy nomidagi O'zbekiston

milliy pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o'qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o'zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan va unga O'zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabr-dagi 201/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.



# PEDAGOGIKA

SCIENTIFIC-THEORETICAL AND  
METHODICAL JOURNAL

## 4/2025



### CHIEF EDITOR

Karimova E'zoxon Gapirjonovna

Maxmudov Abdusalim Xamidovich  
(deputy editor-in-chief)

### EDITORIAL BOARD:

Djurayev Risbay  
Ibraimov Xolboy  
Abdullaeva Barno  
Abdullayeva Shaxzoda  
Djurayev Dusmurod  
Ibragimova Gulnora  
Kamilova Nodira  
Quronov Muhammad  
Madjidova Dildora  
Medetova Raushan  
Muslimov Narzulla  
Nurmatov Abdumannop  
Safarova Roxat  
Tojiboyeva Xilolaxon  
Xaydarov Mamat  
Xakimova Muxabbat  
Xodjayev Begzod

The founder: National pedagogical university of Uzbekistan named after Nizami.

The journal publishes scientific theoretical and methodological articles in Uzbek and Russian languages in the fields of pedagogics, psychology, teaching methods and technologies. The journal has been certified under № 02-004 on the state registration of the mass media from the Tashkent Press and Information Administration as of May 26, 2014 and was awarded the international standard number (ISSN) - 2010-5320 of periodical journals on the basis of the 511/S contract from the National Book Chamber of the Republic of Uzbekistan. The journal has been registered by the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under № 201/3 as of December 30, 2013.

---

**BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA O‘QITUVCHILARI KASBIY  
METODIK TIZIMINI LOYIHALASHTIRISH**

**Hamdamova Nozima Muqimovna**, Buxoro davlat universiteti doktoranti,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Annotasiya.** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini loyihalashtirishga doir ma'lumotlar bayon qilingan. Shuningdek, o'quv jarayonini loyihalashtirish, uni amalga oshirish bosqichlari, bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tizimi komponentlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

**Tayanch so'zlar:** oliy ta'lim, texnologiya, yondashuv, kompetentlik, loyihalashtirish, tizim, komponent.

**ПРОЕКТИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МЕТОДИЧЕСКОЙ  
СИСТЕМЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИИ**

**Хамдамова Нозима Мукимовна**, докторант Бухарского  
государственного университета, доктор философии  
по педагогическим наукам (PhD), доцент

**Аннотация.** В данной статье изложена информация о проектировании профессионально-методической компетентности будущих учителей технологического образования в высших образовательных учреждениях. Кроме того, дана информация о проектировании образовательного процесса, этапах его реализации, компонентах профессионально-методической системы будущих учителей технологии.

**Ключевые слова:** высшее образование, технология, подход, компетентность, проектирование, система, компонент.

**DESIGNING A PROFESSIONAL METHODOLOGICAL SYSTEM  
FOR FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS**

**Khamdamova Nozima Mukimovna**, doctoral student of BukhSU,  
doctor of philosophy (PhD) of pedagogical sciences, associate professor

**Abstract.** This article provides information on the design of professional and methodological competence of future teachers of technological education in higher educational institutions. Information is also provided on the design of the educational process, the stages of its implementation, and the components of the professional and methodological system of future technology teachers.

**Key words:** higher education, technology, approach, competence, design, system, component.

**Kirish.** Oliy ta'lim tizimida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarlik ishlarini loyihalashtirishga zamonaviy yondashuvlardan foydalanishga keng e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy metodik tizimini loyihalashtirish o'quv jarayoni maqsad va vazifalarini belgilash, kutiladigan natijani belgilash, mashg'ulotlarda foydalaniladigan o'qitish shakli, metodlari va vositalarini belgilab olish, ta'lim oluvchilarni nazorat va baholash tartibini belgilashni nazarda tutadi.

**Asosiy qism.** O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi «Pedagogning maqoim to'g'risida»gi Qonunida «ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi, o'quv mashg'ulotlarini o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq sifatli o'tkazishi, o'quv mashg'ulotlari davomida ta'lim

oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko'rish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi» kabi qator majburiyatlar belgilanadi. Pedagogika oliy ta'lim muassasasi texnologik ta'limi yo'nalishi bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarlik ishlari tizimini takomillashtirish uning strukturasiga innovatsion o'zgarishlarni kiritishni nazarda tutadi. Bo'lajak texnologiya o'qituvchilari o'rganadigan barcha kurslarda ilmiy tadqiqot elementlarini qamrab oluvchi, fanlararo dasturni ishlab chiqish va joriy etish orqali amalga oshirilishi kerak. Oliy ta'lim muassasasida bo'lajak mutaxassisning kasbiy-metodik tayyorgarlash kompleks tizimini loyihalashtirish o'qituvchilarini uzluksiz, butun ta'lim olish davri davomida tayyorlashning ijodiy yo'nalganligini amalga oshirishga imkon beruvchi o'qitish shakllari, metodlari va texnologiyalaridan samarali foydalanishni talab etadi.

O.A.Qo'ysinovning «Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik, texnik-texnologik integrativ topshiriqlarni bajarish metodlari (variantlarni tanlash, morfologik tahlil, dixotomiya, sinektika, tizimli operator, ixtirochilik masalalarini yechish algoritmi, modellash)ni qo'llash interfaol ta'lim texnologiyalari («SMART texnologiya», CASE study) va didaktik vositalari («IQ» testlari, muammoli videotopshiriqlar tizimi, muammoli va ijodiy mashqlar) asosida takomillashtirilganligi yoritilgan [4]. L.Z.Zaripovning «Kredit-modul tizimi asosida bo'lajak texnologiya o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ilmiy-texnologik jarayonning industrial bosqichidan yangi davrga o'tish, bilimlarning yaxlit tasavvurini shakllantirish va madaniy jihatdan mos keladigan transformatsion faoliyat tajribasini hamda kasbiy tayyorlashning tadqiqot jarayonlarini bosqichlarga ajratish va ijobiy tendensiyalarini uyg'un aniqlash, shaxsiy xususiyatlari, sifatlari va tajribasini integratsiyalash asosida aniqlashtirilgan, bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning tashkiliy-tuzilmaviy modeli kasbiy faoliyat funksiyalarining motivatsion, intellektual, amaliy, hissiy-irodaviy, tarkibiy qismlarining o'zaro aloqadorligi hamda kasbiy faoliyat natijalarining reproduktiv, produktiv va kreativ darajalari uzviyligini adekvat ta'minlash bosqichlarini ta'lim bloklari va o'quv fanlari darajasiga moslashtirish asosida takomillashtirilganligiga doir ma'lumotlar bayon qilingan [5]. M.M.Yusupovning «Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini o'quv jarayoni natijalarini baholashga o'rgatish metodikasi» mavzusidagi dissertatsiyasida oliy ta'lim tizimida (o'quv maqsadlari, mazmuni, ta'lim jarayoni) bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilariga ta'lim oluvchilarning o'quv jarayoni natijalari (psixologik, intellektual imkoniyatlari, ma'naviy-axloqiy sifatlari)ni baholashga o'rgatishning shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ijtimoiy-pedagogik, kasbiy ehtiyoj va qiziqishlarini etiborga oluvchi psixologik, tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik, auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarini tashkil etishning metodik imkoniyatlari takomillashtirilganligi yoritilgan [3].

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishga ta'limning dastlabki bosqichlaridan boshlab, e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishda talabalarning qiziqishi, intilishi, faolligi, o'zlashtirishi, egallashi, o'quv mahoratlarining shakllanishi kabi fozilatlari xususiyatlar dinamikasi mahoratli o'qituvchilar tayyorlash tizim faolida muhim rol o'ynaydi. Tahlil metodi asosida texnologiya fani o'qitish metodikasiga doir darslik, o'quv qo'llanmalar, ilmiy-metodik adabiyotlar tizimli tahlil qilingan va ilg'or pedagogik tajribalar o'rganilib, fikrlar mujassamlashtirildi. Kuzatish metodi asosida umumta'lim maktablari, kasb-hunar maktablari, oliy ta'lim muassasalarida texnologiya fanini tashkil qilinishi va dars mashg'ulotlarini o'tkazish jarayoni kuzatildi. Taqqoslash metodi asosida

texnologiya fani mashg'ulotlarida innovatsion texnologiya, dasturiy vositalaridan foydalanishning metodik asoslari va ular asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari taqqoslandi. Eksperiment (tajriba) metodi asosida umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejarida ta'lim jarayonini tashkil qilishga doir amaldagi me'yoriy hujjatlar va ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan ilg'or tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilarning tajribalari o'rganildi, fizika, kimyo, biologiya, ekologiya, geografiya kabi fanlardan kompyuter dasturlari asosida tayyorlangan taqdimot materiallari, qurilmalarda boradigan jarayonlar animatsiyalari, o'quv filmlari, multimediali elektron qo'llanmalar, ma'ruzalarning elektron nusxalaridan foydalanib, nazariy va amaliy mashg'ulotlar tashkil qilindi va o'tkazildi.

Respublikamizda oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, ijodkor, kreativ fikrlay oladigan, irodali, faol va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda insoniyatning asosiy maqsadi - har qanday yo'l bilan maksimal natijaga erishish bo'lgan ilmiy-texnologik jarayonning industrial bosqichidan yangi davrga o'tishdir [5]. Texnologik ta'limning minimal mazmuni kasblar va texnologiyalar dunyosi haqidagi bilimlar, yaxlit tasavvurni shakllantirish, o'quvchilar tomonidan insonning madaniy jihatdan mos keladigan transformatsion faoliyat tajribasini rivojlantirishga yordam berishdir. Shuning uchun texnologiya o'qituvchilarini tayyorlashga alohida talablar qo'yiladi. Oliy ta'lim muassasalarida «Texnologik ta'lim» yo'nalishi bo'yicha kasbiy kompetentligi rivojlangan o'qituvchilar tayyorlashda o'quv jarayonini tizimli tashkil qilish, o'quv rejasidagi fanlarga muvofiq o'quv dasturlari bo'yicha asosiy va zaruriy bo'lgan o'quv materiallarni egallashlari, mashg'ulotda bayon qilinadigan material hajmi, o'quv vaqti hajmi, o'zlashtirilishi kerak bo'lgan haqiqiy o'zlashtirgan material, yo'qotilgan material va shu kabi ko'rsatkichlarni asosli ravishda olish kerak bular ekan. Buning uchun, albatta, nazariy va amaliy o'quv jarayoni, qolaversa, butun o'quv jarayoni imkon qadar detallarga bo'lib, oldingiga shu bo'laklar uchun mezon tanlab, yuqoridagi ko'rsatkichlar qiymatini miqdoriy ko'rinishda olib, so'ngi butun jarayon uchun katta hajmdagi tadqiqot natijalar qayta ishlanib ko'rsatkichlar qiymatlarini tanlashga taqdim etilsa va shu asosda o'quv reja va dasturlari tuzilsagina, o'quv jarayoni tashkil qilish va boshqarish jarayonida haqiqiy samara ko'rinar ekan. Bunda asosiy kalitlar ekspertlar va mezon tanlashda xatolikka yo'l qo'ymaslik kerak. Bu fikrni yuqoridagi detallar hamda ko'rib chiqilgan jarayon tasdiqlab turibdi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni amalda yuqori darajada qo'llay olishidir. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi [1]. «Texnologik ta'lim» yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarlik ishlarini takomillashtirishni loyihalashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarlik ishlari pedagogik tizimi barcha komponentlarini bugungi kadrlar bozori ehtiyojlarini inobatga olgan holda takomillashtirish ta'lim tizimi oldida turgan muhim masalalardan biridir. B.X.Xodjaev izlanishlari natijasida, o'quv jarayonini loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, maqsadini, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, talabalarning kompetensiyalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish maqsadga muvofiq deb keltirib o'tadi [2].

Ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari: 1) ta'lim jarayonini loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik jarayon, texnologik jarayonni boshqarish, vosita, axborot, ijtimoiy-iqtisodiy ta'minot)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi bilan ta'minlanadi; 2) ta'limning texnologik vositalari talabalarning individual xususiyatlariga

bog'liq holda tanlanadi; 3) loyihalash strategiyalari pedagogning individual uslubiga muvofiq tanlanadi; 4) loyihalash sifati teskari aloqa (pedagog va talaba o'rtasidagi) ko'lami, loyihalash mazmuni hamda barcha omillar samaradorligiga bog'liq.

O'quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, talabalarning kompetensiyalarini baholashning aniq mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi [6]. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil qilishda bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-metodik tizimini ishlab chiqishda malaka talablari asosida o'quv rejada mavjud fanlar mazmunini zamonaviy o'quv materiallarini boyitish, o'quv jarayonida innovatsion hamda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, mashg'ulotlarda muammoli topshiriqlardan foydalanish, virtual laboratoriya ishlaridan bajarish, mashg'ulotlarni zamonaviy texnika, texnologiyalar vositasida o'tkazishga e'tibor qaratish talab etiladi. Bunday vazifalarni hal qilishda turli pedagogik yondashuvlardan foydalanish, bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga mo'jallangan kasbiy-metodik tizimini yaratishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-metodik tizimini komponentlari o'quv jarayoni funksional tizim faoliyatini muvofiqlashtirishdan kelib chiqqan holda, uning komponentlari maqsad, mazmun, yondashuvlar, tamoyillar, metodlar, texnologiya va metodlar, vositalar, o'qituvchi faoliyati, talaba faoliyati tashkil topgan. Kasbiy-metodik tizimni takomillashtirish ko'p bosqichli davomiy jarayon bo'lib, texnologiya ta'limi o'qituvchilarini nazariy tayyorlashda qaysi yo'nalishda bo'lishdan qat'iyl nazar, talabalar bilim faoliyati samarasini oshirishga ta'sir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

**Xulosa.** Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarning kasbiy-metodik tizimi o'quv jarayoni komponentlar tizimi o'zlashtirish faoliyatini yuqori samaraga erishish uchun barcha harakatlar ilmiy, texnik, asoslash, tanlash kabi ishlarni amalga oshirish talab etiladi. Buning uchun, avvalo, bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash mobaynida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga e'tibor qaratish, mashg'ulotlarda zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalana olish asosida amalga oshirish lozim bo'ladi.

#### Adabiyotlar:

1. Муртазаев М.З. Бўлажак технология таълими ўқитувчилари тайёрлаш жараёнини мувофиқлаштиришнинг методик асосларини такомиллаштириш: Пед. фанл. д-ри (DSc) ... Дис. - Т., 2022. - 275 б.
2. Ходжаев Б.Х., Шоназаров Ж.У., Рахимов З.Т. Касбий педагогика: Ўқув қулланма. - Т.: Ворис, 2019. - 324 б.
3. Юсупов М.М. Бўлажак технологик таълими ўқитувчиларини ўқув жараёнини натижаларини баҳолашга ўргатиш методикаси: Пед. фанл. бўйича фанл. д-ри (PhD) ... Дис. - Ж., 2021. - 135 б.
4. Қўйсинав О.А. Компетентли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантириш технологиялари: Пед. фанл. д-ри (DSc) ... Дис. - Т., 2019. - 219 б.
5. Zaripov L.R. Kredit-modul tizimi asosida bo'lajak texnologiya o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish: Ped. fanl. d-ri (DSc) ... Dis. - T., 2023. - 251 b.
6. Murtozayeva M.M. Ta'lim jarayonini ijtimoiy pedagogik loyihalashtirishda innovatsion usullar. - T.: Fan va texnologiya, 2017. - 160 b.

**PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA, PEDAGOGIK INNOVATIKA**

**Asqarov A.**

Oila va uning transvormatsiyasi hamda idealda zamonaviy o'zbek oilasi haqidagi fikr-mulohazalar.....3

**Kilicheva K.**

Childhood victimisation and psychopathology.....11

**Sadikova Sh.A., Abdusabirovna L.A.**

Integrativ yondashuv asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirishda pedagogning ro'li.....15

**Xazratov F.X.**

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining dasturlashga oid kompetensiyalarini tizimli-algoritmik yondashuv asosida rivojlantirish.....18

**Temirov D.Sh.**

Ta'lim tashkilotlarida jamoatchilik nazoratini rivojlantirishda milliy tarbiya kontentlaridan foydalanish.....23

**Hamdamova N.M.**

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilari kasbiy metodik tizimini loyihalashtirish.....26

**Xonimqulov A.R.**

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining harbiy-vatanparvarlik tayyorgarligi modeli.....30

**Jabbarov U.A.**

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijtimoiy intellektini rivojlantirishning gender xususiyatlari.....34

**Aripova G.Sh., Raxmonova M.U., Soliyeva A.I.**

Oliy ta'lim tizimida blender learning ta'lim tizimini qo'llash mexanizmlari.....38

**Xamdamova M.Z.**

Elektron ta'lim berish jarayonida milliy qadriyatlar asosida o'qituvchilarning insonparvarlik fazilatlarini rivojlantirish tamoyillari.....42

**Mamajonova M.B.**

Abdulla Qoririyning «O'tgan kunlar» asarining bugungi kundagi o'rni.....48

**Oripova R.I.**

Pedagogik tajribalarda o'quvchi-yoshlarning ma'naviy-axloqiy va o'z-o'zini tarbiyalash masalalari.....50

**Galdiyeva M.D., Saydazimov A.N.**

Xulq og'ishni tushunchasi va unig ijtimoiy-psixologik tavsiflanishi.....56

**Норкулова Н.Т.**

Социально-психологические факторы формирования систем ценностей молодежи в процессе трансформации общества.....59

**Агаронян А.А.**

Роль исследовательской деятельности магистранта в высшем образовательном учреждении.....65

**Морхова И.В.**

Использование «Think-Pair-Share» метода в структурированной деятельности обучающихся в образовательном процессе.....69

**Турабекова Ш.Д.**

Социально-психологические факторы насилия над женщинами в семье.....74

**Жумаева А.Ш.**

Творчество как фактор развития профессиональной компетентности современных педагогических кадров высших образовательных учреждений.....80

**Odilova N.G.**

O'smirlar axloqiy o'zini o'zi anglashini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini.....84

**Uralov M.D.**

Gospital maktab o'quvchilarining o'zaro muloqot qobiliyatini rivojlantirish: metodik yondashuvlar.....90

**Yandasheva G.S.**

Ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....94

**Конева С.Х.**

Storytelling в образовательных системах с использованием искусственного интеллекта: взаимодействие традиционных и цифровых подходов.....98

**Bekmuratov A.K., Abdimuratova G.M.**

Bo'lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish.....101

**Sattarova N.O'.**

Ona tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik ta'minoti.....104

**G'oziyeva Sh.B.**

Umumta'lim maktablari o'quvchilarida inklyuziv madaniyat ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarbligi.....108

**Po'latova K.N.**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatini rivojlantirishda muammoli vaziyat metodining geometrik masalalar asosida qo'llanilish.....111

**Abdullayeva A.K.**

Zamonaviy ta'lim jarayonida axloqiy tarbiyani individual yondashuv asosida amalga oshirishning pedagogik ahamiyati.....115

**Shamuratova X.**

Pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ritorikani rivojlantiradigan kompetensiyalari modeli.....119

**Qosimova M.A.**

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalanishda kompetentligiga qo'yilgan talablar.....123

**Atabayev N.I.**

Shaxs ijtimoiylashuv jarayoniga turli yondashuvlar.....128

**Karimjanova Yo.U.**

Talabalarda ijtimoiy intellektning psixologik xususiyatlari.....131

**Kurbanova Z.I.**

5-7 yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda xorijiy tajribalar tahlili.....135

**Boymirzayev F.R.**

Bo'lajak o'qituvchilarning baholashga oid ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy usullari.....141

**Norimbetova N.T.**

Oilada siblinglararo ma'suliyat shakllanishning psixologik talqini.....146

**Muhammadiyeva D.D.**

Fizika darslarida o'quvchilarni STEAM yondashuvi asosida kasbga yo'naltirish metodikasi.....149

**To'xtayeva F.F.**

O'quv jarayonini modellashtirishni takomillashtirish uchun elektron o'quv qo'llamalarning ahamiyati.....153

**Ibragimova N.I., Djurayeva M**

Jismoniy tarbiya va sport ta'limida o'quv jarayonini tashkil etish muammolari va yechimi.....157

**GUMANITAR VA IJTIMOY FANLAR TA'LIMI**

**Рузметова Н.В.**

Формирование правовой компетентности будущих правоведов в процессе изучения английского языка.....162

**Orazimbetov E.K.**

Qoraqalpoq xalq pedagogikasida yoshlarni vatanparvarlikka tarbiyalash an'analari.....166

**TABIY FANLAR TA'LIMI**

**Ochilov Sh.B.**

O'quvchilarga elektromagnit iduksiya hodisasi

---

|                                                                                                        |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| mavzusini fanlararo o'rgatish.....                                                                     | 166 |
| <b>Oqnazarov T.J., Urinova M.A.</b>                                                                    |     |
| Virtual laboratoriyalar haqida umumiy tushuncha.....                                                   | 176 |
| <b>Elliyev H.Q.</b>                                                                                    |     |
| Xalqaro tadqiqotlar asosida xorijiy davlatlarda tabiiy-<br>ilmiy savodxonlikni baholash tajribasi..... | 180 |

**SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT  
FANLAR TA'LIMI**

|                                                                                                          |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Toshmatov G'.O.</b>                                                                                   |     |
| Musiqi mustaqil ta'limda talabani cholg'u ijroligini<br>kompetensiyalarining rivojlanishidagi o'rni..... | 185 |
| <b>Шакурбанова Н.Э.</b>                                                                                  |     |
| Международные векторы развития<br>мультилингвальной личности.....                                        | 190 |



**MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL  
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**NATIONAL PEDAGOGICAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN  
NAMED AFTER NIZAMI**

**PEDAGOGICA**

(scientific-theoretical and methodical journal)

№ 4

**МИНИСТЕРСТВО ДОШКОЛЬНОГО  
И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА им. НИЗАМИ  
ПЕДАГОГИКА**

(научно-теоретический и методический журнал)

№ 4

**“Pedagogika” jurnali “Pedagogik ta’lim” jurnalining vorisidir.**

**Mas’ul kotib – R.M.Medetova**

**Muharrirlar – M.X.Azizova, X.M.Tojiboyeva**

**Sahifalovchi – S.Pirmatov**

**Nashr ko’rsatkichlari:**

Yakka obunachilar uchun – 1076, Tashkilotlar uchun – 1077

Jurnal 2000-yildan boshlab chiqa boshlagan. Ikki oyda bir marotaba chop etiladi.

2025-yil 20-iyun bosishga ruxsat etildi. 10-buyurtma.

Adadi – 92 nusxa. 12 bosma taboq. Ofset usulida bosildi.

Bichimi 70x100<sup>1</sup>/<sub>16</sub> “Roboto” garniturası.

Nizomiy nomidagi TDPU “Tahrir va nash” bo’limida bosildi.

100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,

Bunyodkor ko’chasi, 27-uy.

